


O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil dagi MMO- 283 3 sonli bauonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddamu 2027 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kurs	OIV/OITS muammolari			
O'quv dastur nomi	OIV/OITSning epidemiologiyasi, profilaktikasi			
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Yuldashev K.X., Umirov S.E., Giyasova G.M., Mustafaeva D.A.,. Ibragimov B.N.			
Siklning umumiy soati	144 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d., dotsent Yuldashev K.X	t.f.d., dotsent Umirov S.E.	t.f.n., Giyasova G.M.	t.f.n., Mustafaeva D.A.	assistent Igamberdiyev B.N.
Maqsad	Turli ixtisoslikka ega shifokorlarning OIV infeksiyasining epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezini, klinikasi, tashxisoti, opportunistik kasalliklarning tashxisoti va davolash tamoyillari, hamda ART asoslari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini sohadaagi zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslanib takomillashtirish va yangilashdan iborat.			
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Statsionar, ambulatoriya, sanatoriya-profilaktoriya va boshqa tibbiy davlat hamda nodavlat muassasalarida faoliyat yuritishayotgan turli ixtisoslikdagi shifokorlar uchun			
Sikl vazifalari	- O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasining tarqalishining profilaktikasi borasida jadal amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, ilmiy yangiliklar, yuksak texnologik usullar bilan shifokorlarni tanishtirish. - mutaxassislarni OIV infeksiyasi bo'yicha zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish; - shifokorlarning isbotlangan tibbiyot tamoyillari borasidagi bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish; - shifokorlarning OIV infeksiyasi bilan bog'liq holatlarni XKT-10 ga mos ravishda tashxislashga doir bilim va ko'nikmalarini yangilash; - mutaxassislarda OIV infeksiyasining epidemiologiyasi, patogenezini, tashxisoti, davolash va profilaktikasi borasidagi bilim va ko'nikmalarini zamonaviy bilimlar darajasida chuqurlashtirish; - mutaxassislarning OIV infeksiyasi tashxisoti bo'yicha			

	zamonaviy laborator va instrumental tekshiruv usullarini qo'llab olingan natijalarni to'g'ri talqin etishga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish; • bolalarda kechayotgan OIV infeksiyasining tashxisoti, klinik holatni baholash, tibbiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, davolash, palliativ yordam ko'rsatish amaliyotlariga bolalar kasalliklarini integratsiyalangan tartibda olib borish tamoyillarini tadbiq etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish; • onadan bolaga OIV infeksiyasi o'tishining profilaktikasi borasidagi bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish. • mutaxassislarda ARTning zamonaviy protokollariga asoslanib bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish.
Sikl tarkibi	1-modul. O'zbekiston Respublikasida OITSga qarshi kurashish tizimi xizmatini tashkil etish 2-modul. OIV infeksiyasining epidemiologiyasi, etiologiyasi va laborator tashxisoti 3-modul. OIV infeksiyasining klinik kechishi 4-modul. OIV infeksiyasini davolash tamoyillari. 5 Nazorat
O'quv bazalari	
1. Respublika OITSga qarshi kurashish markazi 	2. Respublika OITSga QKM qoshidagi MYuKSh 
Simulyatsion asbob/uskunalar	
	